



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmoxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIIYAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilhomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	467
Mamadiyarov Dilshad Uralovich	
PAXTA TOZALASH KORXONALARINING TARKIBIY BO'LINMALARIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	474
Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Xaydarbek Ilyos o'g'li	
BARQAROR KELAJAK SARI: MAMLAKATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH	482
Abdullaev Shavkatjon Maxmudillaevich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDI KORXONALARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	487
Abdulakimova Moxina Farxod qizi	
UMUMIY OVQATLANISH SHAHOBCHALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	493
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI O'RGANISH VA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUHLARI	498
Babayeva Lola Ibragimovna	
MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH	504
Xusanov Chari Kadirovich	
PROSPECTS FOR IMPROVING INFRASTRUCTURE FOR SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	509
Botirova Xulkar Olimjonovna	
THE IMPACT OF AGRICULTURAL CLUSTERS ON FOOD SECURITY AND MACROECONOMIC STABILITY	514
Sherkulov Shohruh Erkin ugli	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISSIQXONA IQTISODIYOTINI O'RNI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR	520
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
IJTIMOY AHAMIYATI YUQORI LOYIHALARNI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	524
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQOBAT STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	529
Sharopova Nafosat Radjabovna, Jamolova Aziza	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILARNING XULQ-ATVORINI O'RGANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	537
Sultonova Zulxumor, Bobojonov Baxrombek Ro'zimovich	
INTERNATIONAL TRADE BETWEEN INTEGRATION AND ISOLATION: INNOVATION AND UNCERTAINTY IN A FRAGMENTING GLOBAL ECONOMY.....	542
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA SIGIRLAR BOSH SONINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	548
Sabit Gabbarov	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	552
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Xo'janova Husnora	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH SIFAT OMILLARINING TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ОБЩАЯ КОНЦЕПЦИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ.....	567
Зайналов Джахонгир Расулович	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЫНКОВ КАПИТАЛОВ	571
Хотамкулова Мадина Санжар кизи, Зайналов Джахонгир Расулович	



IPOTEKA KREDITI MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALIY ISHLAR TAHLILI	576
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
KORXONALARDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	581
Abdurashidova Nigora Alisherovna, Abduqodirova Donoxon	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI OSHIRISH OMILLARI VA MEZONLARI	588
Jumanov Ruslanbek Bobojanovich	
O'ZBEKISTONIDA MEHNAT BOZORINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	592
Rasulev Alisher Fayziyevich, Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
STUDY OF THE ECONOMIC EFFICIENCY OF GREEN BONDS, ECOLOGICAL LOANS, AND GREEN INVESTMENT FUNDS, AS WELL AS THEIR IMPORTANCE IN THE FINANCIAL SYSTEM.....	595
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TERMINOLOGIYASINING ILMIY-TAHLILII TALQINI.....	603
Aripov Oybek Abdullayevich	
O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	608
Rasulev Alisher Fayziyevich, Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FERMER XO'JALIKLARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA OPTIMALLASHTIRISH.....	611
Kdirbaev Amir Marat uli	
ITALIYA VA YAPONIYADA DAVLAT QARZINING UZOQ MUDDATLI BARQARORLIGI: FISKAL QOIDALAR VA QARZ BOSHQARUVI STRATEGIYALARINING QIYOSIY TAHLILI.....	614
Abdurahimov Abror Zafarovich, L.M. Tashpulatova	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	621
Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI IFODALOVCHI ASOSIY OMILLAR	626
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
GLOBAL XAVFLARNING KESKINLASHUVI SHAROITIDA QAYTA SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	631
Norov Zarif Shamsiddinovich	
INNOVATSION SUG'URTA XIZMATLARINI JORIY ETISH ORQALI IXTIYORIY SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	638
Xayitov Nodirjon Uzokovich	
VOSITACHILIK XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLAR AUDITI SIFAT NAZORATI	652
O.Q. Qo'shmatov	
AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIK MODELLARDAN FOYDALANISH MASALALARI	657
I.Qo'ziyev, F.Ochilov	
MAJBURIYATLAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI.....	664
Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	
ВОПРОСЫ РЕОРГАНИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СЕЛЬКОМ ХОЗЯЙСТВЕ	669
Розиков Жалил Жалолович	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI O'TKAZISH TARTIBI.....	678
M.Xayitboyev	
USTAV KAPITAL HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	683
Inomjon Sherimbetov	



USTAV KAPITAL HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Inomjon Sherimbetov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada xususiy kapitalning tarkibiy qismi bo'lgan ustav kapitalining shakllanishi va o'zgarishi, shuningdek unga ulush sifatida kiritiladigan mol-mulkni baholashdagi mavjud muammolar hamda ularni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi yoritilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, xalqaro standartlar asosida ustav kapitali hisobini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xususiy kapital, ustav kapital, ulush, haqqoniy qiymat, to'lanmagan kapital, sotib olingan xususiy aksiya, sof aktiv.

Abstract. The article examines the formation and changes of charter capital as a component of equity, as well as existing issues in valuing assets contributed as equity shares and the procedures for their recognition in accounting and financial reporting. Based on the research findings, recommendations have been developed for improving the accounting of charter capital in accordance with international standards.

Key words: equity, charter capital, contribution, fair value, unpaid capital, treasury shares, net assets.

Аннотация. В статье раскрываются вопросы формирования и изменения уставного капитала как составной части собственного капитала, а также существующие проблемы оценки имущества, вносимого в качестве доли, и порядок его отражения в бухгалтерском учёте и финансовой отчётности. По результатам исследований разработаны рекомендации по совершенствованию учёта уставного капитала на основе международных стандартов.

Ключевые слова: собственный капитал, уставный капитал, вклад, справедливая стоимость, неоплаченный капитал, собственные акции, чистые активы.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda buxgalteriya hisobi va audit sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq tadbirkorlik subyektlari oldida hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar yuzaga kelmoqda. Xususan, muayyan turdagi tadbirkorlik subyektlari moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar talablariga muvofiq tayyorlashi va o'rnatilgan tartibda auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvidan o'tkazishi talab etiladi. Shuningdek, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiq tuzish ularga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda past stavkada kredit mablag'larini olish imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan, tashkilotlar tomonidan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va undagi axborotlarning shaffofligini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Xususiy kapital aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorligining asosi hisoblanadi, uning miqdori va o'sish tempi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijadorligini ifodalaydi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xususiy kapitalga oid axborot ta'minoti muhim ahamiyatga ega. Bunday axborot ta'minoti aksiyadorlik jamiyatining hisob tizimi doirasida shakllantirilgan ishonchli hisob va hisobotdan olinadi.

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitalida aks etuvchi muhim komponent — ustav kapitalining shakllanishi va uning miqdori o'zgarishini buxgalteriya hisobida aks ettirish jarayonini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash joizki, bir qator olimlar xususiy kapital hisobiga oid tadqiqotlarni o'z ishlarida ko'rib chiqqanlar. Xususan, O. Ermatovning ilmiy ishida "xususiy kapital tarkibi muassislar kiritgan mablag'lar, korxona faoliyati



davomida ishlab topgan va jamg'argan mablag'lar, kelgusida korxona foydasi hisobiga o'tkaziladigan mablag'lardan iborat bo'lishi asoslangan va ularni buxgalteriya o'tkazmalarida aks ettirish taklif etilgan", deb qayd etilgan [3].

Q. O'rishev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "yog'-moy sanoati korxonalarining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitalni hisobga olish bo'yicha takomillashtirilgan takliflar berilgan" [4].

Q. Berdiyev ham o'zining ilmiy ishida "xo'jalik yurituvchi subyektlarda ustav kapitali miqdorini aniq hisobda aks ettirish maqsadida valyuta kursi bo'yicha farqlarni hisobga olish, xususiy kapital hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida retrospektiv to'g'rilash hamda aksiyadorlik kapitalini sinfosti moddalariga ajratgan holda transformatsiya qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqqan"ligini ta'kidlagan [5].

I. Baxoldina "xususiy kapital to'g'risida strategik va taktik boshqaruv qarorlarini qabul qilish shak-shubhasiz jamiyatning hisob tizimi tomonidan shakllantiriladigan axborotlarga bog'liqdir", deb ta'kidlab o'tgan [6].

T. Dudich "ustav kapitali aksiyadorlarning ishtiroki darajasini bildiruvchi vosita bo'lib, aksiyalar qiymatini yaxshiroq baholashga olib keladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy etilishi natijasida buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan paradigmasi sifatida haqqoniy qiymat keng targ'ib qilina boshlandi. Biroq, haqqoniy qiymat bozor narxlarining katta tebranishlari tufayli zaif o'lchovdir", degan xulosaga kelgan [7].

Biroq olib borilgan tadqiqotlarda ustav kapitali hisobini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish masalalari atroflicha yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ustav kapitali hisobini tashkil etish qoidalarini normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarda xususiy kapital hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish buxgalteriya hisobining ilmiy-metodologik apparatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishtirokchi jamiyatning ustav kapitaliga pul, qimmatli qog'ozlar, pul bilan baholanadigan boshqa buyumlar yoki mulkiy huquqlar yoxud boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlarni hissa sifatida kiritishi jamiyatning buxgalteriya balansida aktivlarning ko'payishi hamda passiv qismida xususiy kapitalning ko'payishi tartibida aks ettiriladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida «ulushlarga (qo'shilgan hissalariga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi», deya ta'rif berilgan [1].

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, "ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar (ishtirokchilar) o'rtasidagi kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak", deb belgilangan [2].

Jamiyatning ustav kapitali uchta funksiyani bajaradi:

1. jamiyat faoliyatini tashkil etish va boshlash uchun birlamchi kapitalni shakllantirish;
2. ulush yoki aksiyaga muvofiq mulkdorlar o'rtasida foydani taqsimlash;
3. kreditorlar oldidagi majburiyatlar bajarilishini kafolatlash.

Ta'sis hujjatlarida ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitalining summasi jamiyat ishtirokchilarining jami qo'yilma (ulush, aksiya)larini aks ettirib, buxgalteriya hisobida 8300 — "Ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar"da aks etadi. 8300 — "Ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar" saldosi jamiyat ta'sis hujjatida belgilangan ustav kapitali miqdoriga mos bo'ladi hamda hisobot davrida ishtirokchilar tomonidan hissalarining kiritilgan yoki kiritilmaganligiga bog'liq bo'lmaydi.

Yangidan tashkil etilgan jamiyat davlat ro'yxatidan o'tmagunga qadar, ya'ni u haqidagi ma'lumotlar tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reestriga kiritilmagunga qadar ishtirokchilarning qarzlari va ular tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar buxgalteriya hisobida aks etmaydi. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tgan sanada ta'sis hujjatlariga muvofiq ishtirokchilarning jami qo'yilmalar (ulush, aksiya) summasi to'g'risidagi operatsiyani aks ettiruvchi birinchi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi. Mazkur holatda ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8310–8330) kreditlanib, ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari schyoti (4610) debetlanadi.

Bizning fikrimizcha, mazkur holatda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masala mavjud, ya'ni ishtirokchilarning jamiyat ustav kapitaliga ta'sis shartnomasiga asosan kiritadigan qo'yilmalari ularning istagiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Muassislarning bu istakni turli sabablarga ko'ra haqiqatda amalga oshirish



yoki amalga oshirmaslik huquqi ham mavjud. Shundan kelib chiqqan holda, ishtirokchilar tomonidan kiritilishi lozim bo'lgan qo'yilmalarni "to'lanmagan kapital" kontrpassiv schyoti sifatida kapitalni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Ushbu fikrga kelishimizga yana bir asos — ishtirokchilarning qarzini balansda aktivlar tarkibida debitorlik qarzi sifatida aks ettirilishi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Buxgalteriya hisobida ushbu operatsiyani jamiyat davlat ro'yxatidan o'tganda ta'sis hujjatida belgilangan summa miqdorida taklif etilayotgan "to'lanmagan kapital" (8390) schyotini debetlab, ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlarni kreditlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Ishtirokchilar tomonidan ustav kapitaliga qo'yilmalar pul ko'rinishida, moddiy va nomoddiy shakldagi mulklar kiritilganda, tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq tegishli schyotlar debetlanib, "to'lanmagan kapital" schyoti kreditlangan holda moliyaviy hisobotning tegishli elementlarida aks ettiriladi.

Shuningdek, mazkur holatda buxgalteriya balansining passiv qismidagi o'z mablag'lari manbalari tarkibida "to'lanmagan kapital" moddasini kiritish maqsadga muvofiq. Bunga asosiy sabab — buxgalteriya balansini netto asosda tuzilishini hisobga olsak, xususiy kapitalning sof miqdorini aks ettirish imkonining vujudga kelishidir (1-jadval).

1-jadval. Buxgalteriya balansini 1-sonli shaklda ustav kapitalini miqdorini aks ettirilishi¹

Amaldagi holat				Taklif etilayotgan holat			
I. O'z mablag'lari manbalari		Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	I. O'z mablag'lari manbalari		Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
Ustav kapitali (8300)	410			Ustav kapitali (8300)	410		
				To'lanmagan kapital (8390)	415		

Qonunchilik hujjatlarida ustav kapitaliga ulush sifatida kiritiladigan qo'yilmalar pul ko'rinishidan boshqa shakldagi aktiv sifatida kiritilganda, ular ta'sischi o'rtasida kelishilgan bahoda buxgalteriya hisobida aks ettirilishi belgilangan. Fikrimizcha, mazkur holatda ham alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat mavjud. Xususiy kapital komponentlari tashkilotning moliyaviy mustaqilligiga va moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar ekanini inobatga olsak, ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilgan pul shaklida bo'lmagan mol-mulkning qiymati muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida mol-mulklarning qiymatini buxgalteriya hisobida, aksariyat hollarda, haqqoniy qiymatda aks ettirish talab etiladi. Xususan, "Haqqoniy qiymatni baholash" nomli 13-son moliyaviy hisobotning xalqaro standartida haqqoniy qiymatni aniqlash tartibi keltirilgan. Unga muvofiq, "haqqoniy qiymat — baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o'tkazish uchun to'lanishi mumkin bo'lgan narx", deb qayd etilgan [8].

Ta'rifga e'tibor qaratsak, bozor — haqqoniy qiymatni aniqlashdagi asosiy omil hisoblanadi. Demak, haqqoniy qiymat muayyan obyektlarni baholash natijasi emas, balki bozor ko'rsatkichi hisoblanadi. Ya'ni jamiyat aktiv va majburiyatlarni bozor ishtirokchilari tomonidan qanday baholanishiga tayanishi hamda mazkur holatda baholashning xususiy yondashuvlarini inobatga olmasligi lozim.

Shuningdek, mazkur standartda haqqoniy qiymatni aniqlashda foydalaniladigan ma'lumot manbalari uch darajaga ajratilgan.

Xalqaro standartda tashkilot baholash sanasida foydalanishi mumkin bo'lgan bir xil aktivlar yoki majburiyatlar bo'yicha faol bozordagi (tuzatilmagan) narxlar kotirovkasi birinchi darajali manba sifatida e'tirof etilgan. Ta'kidlash joizki, bunda asosiy urg'u faol bozorga qaratilgan. Ya'ni aktivlar va majburiyatlar baholanishi uchun ushbu obyektlar savdosi amalga oshiriladigan faol bozor mavjud bo'lishi talab etiladi.

1-darajaga kiritilgan narxlar kotirovkasidan tashqari aktiv yoki majburiyat bo'yicha bevosita yoki bilvosita, kuzatish orqali olinadigan ma'lumot manbalari 2-darajali manba hisoblanadi. Ushbu manbadan mamlakatda faol bozor mavjud bo'lmaganda, kuzatiladigan narxlar asosida aktivlar yoki majburiyatlar baholanadi. Demak, mazkur holatda aktivlarni sotishdan olinadigan foydani maksimallashtirish yoki majburiyatni so'ndirishda to'lanishi mumkin bo'lgan summani minimallashtirishga imkon beradigan bozor hisoblanadi.

Aktiv yoki majburiyat bo'yicha kuzatilmaydigan manba ma'lumotlari asosida baholanishi 3-darajali manba ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi (2-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi.

2-jadval. Haqqoniy qiymatni aniqlash iyerarxiyasi²

1-daraja	Fond birjasida muomalada bo'lgan aksiyalarning bozor kotirovkasi
2-daraja	Faol bozorda o'xshash aktivlar uchun kotirovka
	Faol bo'lmagan bozorda xuddi shunday yoki o'xshash aktivlarning kotirovkasi
	Boshqa kuzatiladigan boshlang'ich ma'lumotlar
	Bozor tomonidan tasdiqlangan boshlang'ich ma'lumotlar
3-daraja	Moliyaviy prognozlar
	Narxlar o'zgaruvchanligining tarixiy statistikasi
	O'rtacha bozor qiymatini baholash

Bizning fikrimizcha, ustav kapitaliga kiritilgan pul shaklida bo'lmagan aktivlar haqqoniy qiymatda baholanishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur holat moliyaviy hisobotda mol-mulklar qiymatining ishonchli aks ettirilishini ta'minlaydi. Hissa sifatida kiritilgan mol-mulkning qiymati jamiyat ustavida, qonunchilikda belgilangan tartibda muassislarning kelishuvi asosida aniqlangan bahodan uning haqqoniy qiymati yuqori bo'lsa, oradagi farqni 8410 — "Emissiya daromadi" schyotining kreditida aks ettirish lozim. Ushbu holatda alohida e'tibor qaratiladigan jihat shundaki, haqqoniy qiymatni aniqlash uchun jamiyatda ushbu masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida tarkibiy bo'linmaning mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Agar ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilayotgan pul shaklida bo'lmagan mol-mulkning haqqoniy qiymatini 1- va 2-darajali ma'lumot manbalari asosida aniqlashning imkoni bo'lmaganda, 3-darajali ma'lumot manbasi sifatida baholovchi tashkilotning hisobotidan foydalanish mumkin.

Agar ustav kapitaliga hissa sifatida ko'chmas mulk obyekti kiritilsa, unga bo'lgan mulk huquqi qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Milliy qonunchiligimizga muvofiq, ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan mulk huquqi o'tgan kundan boshlab jamiyat unga egalik qila boshlaydi va buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xalqaro amaliyotga nazar soladigan bo'lsak, ko'chmas mulk obyekti ustidan nazorat olingan hamda undan keladigan iqtisodiy naf jamiyatga tegishli bo'lgan kundan boshlab buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Demak, xalqaro standartga muvofiq operatsiyaning yuridik jihatidan ko'ra mazmunning shakldan ustunligiga ustuvorlik beriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali quyidagi tartibda shakllantirilishi mumkin:

— jamiyatning mol-mulki, ya'ni qo'shilgan kapitali va taqsimlanmagan foyda hisobiga aksiyalar nominal qiymatini oshirish orqali;

— qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali.

Ta'kidlash joizki, jamiyat ustav kapitalini oshirish uning aksiyadorlari umumiy yig'ilishi vakolati hisoblanadi, biroq ushbu vakolat umumiy yig'ilish qarori bilan kuzatuv kengashiga ham berilgan bo'lishi mumkin. Agar jamiyat tomonidan ustav kapitalini oshirish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, uning yangi miqdori ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Ustav kapitalining miqdori jamiyatning mol-mulki hisobiga oshirilgan taqdirda, ushbu o'zgarish davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada buxgalteriya hisobida 8310 — "Oddiy aksiyalar" schyoti kreditlanib, uning taqsimlanmagan foyda yoki qo'shilgan kapital schyotlari debetlanadi. Agar ustav kapitalining miqdori muassislarning qo'shimcha hissalar yoki uchinchi shaxslarning hissalar hisobiga oshirilishi to'g'risida qaror qabul qilinsa, mazkur holatda jamiyat ta'sis hujjati qayta ro'yxatdan o'tkazilgungacha aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar debetlanib, ta'sischilarning ustav kapitalini oshirish bo'yicha ulushlari (6630) schyoti kreditlanadi. Ushbu majburiyat schyoti ta'sis hujjati qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng ta'sischilarning ustav kapitaliga hissalar bo'yicha qarzi (4610) schyoti orqali yopiladi.

Jamiyat ustav kapitali quyidagi tartibda kamaytirilishi mumkin:

— aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish;

— aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish;

— aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni qaytarib olish;

— sof aktivlarning qiymati jamiyatning ustav kapitali miqdoridan oz bo'lsa, ustav kapitalini sof aktivlar miqdorigacha kamaytirish.

Agar jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi ustav kapitali miqdorini muassislarga qisman ulushlarini to'lash yo'li bilan kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilsa, ta'sis hujjatlariga o'zgartirish davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada buxgalteriya hisobida ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) debetlanadi, chiqib ketayotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarzlari (6620) schyoti kreditlanadi. Ustav kapitali kamaytirilgan summaga yuzaga kelgan majburiyat so'ndirilganda, chiqib ketayotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarzlari (6620) schyoti debetlanib, mos ravishda pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

² Muallif ishlanmasi



Ustav kapitali miqdori muassislarga to'lovni amalga oshirmasdan ulush nominal qiymatining kamaytirilishi holatida, ta'sis hujjatlaridagi o'zgarishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada buxgalteriya hisobida ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) debetlanadi, taqsimlanmagan foyda (yoki qoplanmagan zarar) schyoti kreditlanadi. Bunday operatsiya jamiyat ustav kapitali miqdorini sof aktivlari miqdorigacha muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ustav kapitalini jamiyatga tegishli ulushlarni so'ndirish orqali kamaytirish ta'sis hujjatlaridagi o'zgarishlar davlat ro'yxatidan o'tgan sanada buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Mazkur holatda aksiyalar nominal qiymatdan yuqori bahoda yoki past qiymatda sotib olinadi. Demak, jamiyat nominal qiymatdan past bahoda aksiyalarini xarid qilsa, ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) debetlanadi, "sotib olingan xususiy aksiyalar" (8610) schyoti kreditlanadi, oradagi farq summa "moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari" (9590) schyotini kreditlash orqali rasmiylashtiriladi. Nominal qiymatdan yuqori bahoda jamiyat o'z aksiyalarini sotib olsa, ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) debetlanadi, "sotib olingan xususiy aksiyalar" (8610) schyoti kreditlanadi, oradagi farq summa "moliyaviy faoliyatning boshqa xarajatlari" (9690) schyotini debetlash orqali rasmiylashtiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining joriy etilishi tadbirkorlik subyektlaridan amaldagi hisob tizimini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirilgan holda moliyaviy hisobotlarini tayyorlash vazifasini yuklaydi. Bizga ma'lumki, moliyaviy hisobot subyekt faoliyati samaradorligini, shuningdek moliyaviy-xo'jalik faoliyati risklarini tahlil qilish uchun ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotda axborotlarning tasniflanishi moliyaviy barqarorlikni, natijadorlikni va risklarni baholashning xolisligini ta'minlaydi. Moliyaviy hisobotning tarkibi va tuzilishi nafaqat xalqaro standartlar qoidalariga mos kelishi, balki moliyaviy va boshqaruv tahlili talablariga javob berishi kerak. Shunday ekan, moliyaviy barqarorlik va investitsion jozibadorlikni baholashda xususiy kapital to'g'risidagi axborotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda ishonchli hamda o'rinli aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotda foydalanuvchilarning manfaatlari nuqtayi nazaridan xususiy kapitalga oid axborotlar yoritib berilishi lozim. Ushbu talabdan kelib chiqadigan bo'lsak, ustav kapitalining amaldagi hisobini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, xalqaro amaliyotda xususiy kapital to'g'risidagi axborotlar moliyaviy hisobotda netto asosda aks ettiriladi. Shu nuqtayi nazardan biz taklif etgan "to'lanmagan kapital" (8390) schyotining joriy etilishi ustav kapitalining sof miqdorini aniqlash va moliyaviy hisobotda ishonchli hamda shaffof axborot aks ettirilishini ta'minlaydi.

Qonunchilik hujjatlarida ustav kapitaliga ulush (aksiya, pay) sifatida kiritiladigan mol-mulk ishtirokchilar tomonidan kelishilgan qiymatda baholanishi belgilangan. Ammo moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan ustav kapitaliga kiritiladigan ulushlar haqqoniy qiymatda baholanishi talab etiladi. Mazkur qoida buxgalteriya hisobining prinsiplariga mos kelib, moliyaviy hisobot axborotlarining buzib ko'rsatilishini oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. 1995 йил 21 декабрь. <https://lex.uz/mact/111189>
2. Ўзбекистон Республикасининг 13.04.2016 йилдаги "Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида"ги ЎРҚ-404-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/2931253>
3. Эрматов А.А. Хусусий капиталнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш муаммолари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент: 2020 й. 56 б.
4. Ўришев Қ.О. Ёғ-мой ишлаб чиқариш корхоналарида хусусий капитал ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент: 2020 й. 56 б.
5. Бердиев Қ.Ҳ. Хусусий капиталнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент: 2023 й. 56 б.
6. Бахолдина И.В. Бухгалтерский (финансовый) учет / И.В. Бахолдина, Ю.В. Щербинина. – М.: КНОРУС, 2021. – 371 с.
7. Tadeusz Dudycz (2022) Does share capital mater for company performance? Economic Research-Ekonomska Istraživanja, 35:1,3035-3059, DOI: 10.1080/1331677X.2021.1985575
8. 13-сон «Ҳаққоний қийматни баҳолаш» Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>